# BUGUN MAKTABLARDA “BIRINCHI QOʻNGʻIROQ” JARANGLADI

Bugun 6 sentabr kuni tumanimizdagi barcha umumtaʼlim maktabida anʼanaviy shaklda darslar boshlandi. Joylarda “Birinchi qoʻngʻiroq” tadbirlari “Yangi Oʻzbekistonda erkin va farovon yashaylik!” shiori ostida oʻtkazilmoqda.

Tumanimizdagi 6-umumtaʼlim maktabida tashkil etilgan tadbirda tuman hokimi A Djumayev ham ishtirok etdi. Tuman hokimi soʻzga chiqib, yangi oʻquv yili boshlanishi bilan barcha oʻqituvchi va oʻquvchilarni tabrikladi.

Bu yil maktab ostonasiga ilk qadam qoʻygan jajji bolajonlarga sektor rahbarlari tomonidan, 12 turdagi oʻquv qurollari, maktab sumkasi, darsliklar majmuasidan iborat Prezident sovgʻalari topshirildi.

Batafsil oltinsoy.uz da